

YO‘L QOIDASI-UMR FOYDASI

Muxamadaliyev Islomjon Topvoldi o‘g‘li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15448979>

Bugungi kunda jamiyatimizda xavfsizlik masalasi har doimgidan dolzarb. Ayniqsa, yo‘l harakati qoidalariga amal qilish – har bir fuqaroning nafaqat o‘z hayoti, balki atrofdagilarning ham sog‘lig‘i va xavfsizligini ta‘minlaydi.

Bejizga xalqimiz “Yo‘l qoidasi – umr foydasi” deb bekorga aytmagan. Bu naql o‘zida katta ma‘no, chuqur hayotiy haqiqatni mujassam etadi.

Qoidalar biz uchun emas, biz qoidalar uchunmi?

Ko‘pchilik haydovchilar yoki piyodalar yo‘l harakati qoidalariga faqat jarimadan qutulish, yoki inspektorni aldash uchun amal qiladigandek qaraydi. Ammo bu noto‘g‘ri fikr. Har bir qoida – tajriba va ehtiyot choralari asosida yaratilgan.

Masalan, svetofor nuri, zebra yo‘laklari, tezlik chegarasi yoki xavfli burilish belgilarining barchasi inson hayoti uchun qo‘yilgan mudofaa devoridir.

Statistikalar nimani ko‘rsatmoqda?

So‘nggi yillarda yo‘l-transport hodisalari soni kamayayotgan bo‘lsa-da, hali hamon ayrim beparvo haydovchi va e‘tiborsiz piyodalar tufayli baxtsiz hodisalar sodir bo‘lmoqda.

Aksar hollarda sabab – oddiy qoidadan chekinish: svetoforga amal qilmaslik, tezlikni oshirish, yo‘lakdan o‘tmaslik va hokazo.

Yo‘l jamiyat a‘zolarining bir-birlari bilan bog‘lanishlari, munosabat o‘rnatishlari, muntazam aloqalarni joriy etishlari vositasidir. Kishilar yo‘llar orqali uydan uyga, mahalladan mahallaga, bir yurtdan ikkinchisiga borib-kelishadi.

Insonlar yo‘llar vositasida hayotlari uchun kerak bo‘lgan yuklarini tashiydilar. Ibtidoiy jamiyat davrdan boshlab, hozirgacha yo‘llar ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim o‘rin egallab kelgan.



Hayotning barcha sohasida taraqqiyot, osonlik, qulaylik uchun yo‘llar o‘ta zarur omilga aylanib qoldi. Yo‘lga va yo‘l xizmatlariga oid o‘ziga xos qonun-qoidalar, odob-axloqlar joriy qilingan.

Mamlakatimizda hatto maktabgacha ta'lim muassasalarida ham yo'l xavfsizligi qoidalari o'rgatilmoqda.

Bugungi kunda yo'l qoidalariga qat'iy rioya qilishni nazoratga olish dolzarb vazifaga aylandi. Termiz tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida ham harbiy xizmatchilarni ogohlikka chaqirish maqsadida so'nggi vaqtlarda sodir bo'layotgan ayanchli yo'l transport hodisalari, ularning oqibatlari, ayniqsa spirtli ichimlik ichib avtomobil boshqarish natijasida sodir bo'layotgan holatlar yuzasidan davra suhbat tashkillashtirildi va ushbu holatlar tasvirlangan videorolik namoyish etildi.

Suhbat qizg'in va bahs munozaralarga boy bo'lib, harbiy xizmatchilarga avtotransport vositalarini boshqarish bo'yicha tegishli tushunchalar berib o'tildi. Zero umr bebaho ne'matdir, uni go'zal va mazmunli o'tkazish barchamizning o'z qo'limizdadir.

“Yo'l qoidasi – umr foydasi” degan gap shunchaki shior emas, balki har bir yurtdoshimiz yuragiga muhrlanishi kerak bo'lgan haqiqatdir. Har birimiz shu mas'uliyatni chuqur anglab, hayotimizda amaliyotga tatbiq etsak – ko'chalarda tinchlik, oilalarda osoyishtalik hukm suradi.